Registered in Germany Europa Revue Journal
ISSN: 1862-6564 Vol. 6 No. 10 (2026) Published October 7, 2026

CONSISTENCY IN ESTIMATING THE NUMBER OF VISITORS AT PUBLIC EVENTS: THE CASE OF THE NAMANGAN INTERNATIONAL FLOWER FESTIVAL (2025–2026)

Abdukaxxarov Fazliddin Nematulo o‘g‘li
Independent Researcher.

Annotation

The article tests the consistency of visitor figures for the International Flower Festival held annually in the Namangan region, using official sources. According to the preliminary estimate of the regional Tourism Department, the 65th festival of 2026 (50 days) was visited by more than 1.1 million foreign and more than 7.5 million domestic tourists. The figure is checked against five independent comparators: the region’s official 2022–2026 plan, the national flow of foreign tourists, the 2025 indicators of the Fergana region, accommodation statistics of the region, and the structure of the 2025 festival data. The number of foreign visitors is 35.5 times the 2026 annual plan and 9.0 times the five-year plan; on a daily basis it equals 60% of the average national flow of foreign tourists; in the 2025 data, residents of Namangan city and districts formed 65.6% of recorded visits and four neighbouring countries accounted for 99% of foreign visitors. The results support the hypothesis that the published figures measure "visits" rather than "tourists" in the international sense. A standard procedure for counting visitors at mass events is proposed.

Key words

event tourism, visitor numbers, counting methodology, Namangan flower festival, daily visitors, tourism statistics, Fergana Valley.

OMMAVIY TADBIRLARDA TASHRIFCHILAR SONINI BAHOLASHNING IZCHILLIGI: NAMANGAN XALQARO GULLAR FESTIVALI (2025–2026) MISOLIDA

Abdukaxxarov Fazliddin Nematulo o‘g‘li, Mustaqil tadqiqotchi.
abdukaxxarov99@gmail.com *https://orcid.org/0009-0003-9429-8361*

Annotatsiya. Maqolada Namangan viloyatida har yili o‘tkaziladigan Xalqaro gullar festivali tashrif ko‘rsatkichlarining izchilligi rasmiy manbalar asosida

tekshirilgan. Viloyat Turizm boshqarmasining dastlabki hisob-kitobiga koʻra, 2026-yilgi 65-festivalga (50 kun) 1,1 milliondan ortiq xorijiy va 7,5 milliondan ortiq mahalliy sayyoh tashrif buyurgan. Bu koʻrsatkich beshta mustaqil taqqoslash bilan sinab koʻrildi: viloyatning 2022–2026-yillarga moʻljallangan rasmiy rejasi, mamlakat boʻyicha xorijiy turistlar oqimi, Fargʻona viloyatining 2025-yilgi koʻrsatkichlari, viloyat joylashtirish vositalari statistikasi va 2025-yilgi festivalning tarkibiy ma'lumoti. Xorijiy tashrifchilar soni 2026-yilgi yillik rejadan 35,5 baravar, besh yillik rejadan 9,0 baravar koʻp; kunlik hisobda mamlakat boʻyicha oʻrtacha xorijiy turistlar oqimining 60 foiziga teng; 2025-yilgi ma'lumotda tashriflarning 65,6 foizini Namangan shahri va tumanlari aholisi tashkil etgan, xorijiy tashrifchilarning 99 foizi toʻrt qoʻshni davlatga toʻgʻri kelgan. Natijalar e'lon qilingan sonlar xalqaro ta'rifdagi "turist" emas, balki "tashrif" birligini oʻlchaydi, degan farazni ilgari suradi. Ommaviy tadbirlarda tashrifchilarni hisoblashning standart tartibi taklif etiladi.

Kalit soʻzlar: tadbir turizmi, tashrifchilar soni, hisoblash metodologiyasi, Namangan gullar festivali, kunlik tashrifchilar, turizm statistikasi, Fargʻona vodiysi.

Аннотация. В статье на основе официальных источников проверена согласованность показателей посещаемости Международного фестиваля цветов, ежегодно проводимого в Наманганской области. По предварительным расчётам областного управления туризма, 65-й фестиваль 2026 г. (50 дней) посетили более 1,1 млн иностранных и более 7,5 млн местных туристов. Показатель сопоставлен с пятью независимыми ориентирами: официальным планом области на 2022–2026 гг., национальным потоком иностранных туристов, показателями Ферганской области за 2025 г., статистикой средств размещения области и структурой данных фестиваля 2025 г. Число иностранных посетителей в 35,5 раза превышает годовой план 2026 г. и в 9,0 раза — пятилетний план; в пересчёте на сутки оно равно 60% среднего национального потока иностранных туристов; в данных 2025 г. жители города и районов Намангана составили 65,6% зафиксированных посещений, а четыре соседних государства — 99% иностранных посетителей. Результаты подтверждают гипотезу о том, что публикуемые числа измеряют «посещения», а не «туристов» в международном смысле. Предложен стандартный порядок

подсчёта посетителей массовых мероприятий.

Ключевые слова: событийный туризм, число посетителей, методология подсчёта, фестиваль цветов в Намангане, суточная посещаемость, туристская статистика, Ферганская долина.

Kirish

Ommaviy tadbirlar mintaqa turizmining koʻrinadigan va tez targʻib qilinadigan yoʻnalishiga aylangan: ularning muvaffaqiyati koʻpincha tashrifchilar soni bilan oʻlchanadi. Namangan viloyatida har yili may–iyul oylarida oʻtkaziladigan Xalqaro gullar festivali bunga yorqin misol. 2026-yilda u 65-marta oʻtkazildi, festival doirasida Ginnes rekordlar kitobiga “bir oy davomida jamoa boʻlib eng koʻp ekilgan gul” nominatsiyasida 150 million tup gul ekilgani bilan kirildi[1]. Viloyat Turizm boshqarmasi festival yopilgan kuni e’lon qilgan dastlabki hisob-kitobga koʻra, unga 1,1 milliondan ortiq xorijiy va 7,5 milliondan ortiq mahalliy sayyoh tashrif buyurgan[2]. Bunday katta sonlar tadbirning ahamiyatini koʻrsatadi, lekin ayni paytda ularning nimani oʻlchashi va qanday olinganini aniqlashni talab qiladi: hisoblash usuli noaniq boʻlsa, tashrif koʻrsatkichi strategik qarorlar uchun ishonchli asos boʻla olmaydi.

Maqolaning maqsadi – Gullar festivali tashrif koʻrsatkichlarining izchilligini mustaqil rasmiy manbalar bilan taqqoslab tekshirish va ommaviy tadbirlarda tashrifchilarni hisoblashning ishonchli tartibi uchun asos tayyorlash. Maqsadga erishish uchun toʻrtta vazifa qoʻyildi: birinchidan, “tashrif buyuruvchi”, “turist” va “bir kunlik tashrifchi” tushunchalarining xalqaro ta’riflarini aniqlash; ikkinchidan, festival koʻrsatkichlarini beshta mustaqil taqqoslash orqali sinash; uchinchidan, kuzatilgan tafovutlarning ehtimoliy sabablarini farazlar sifatida shakllantirish; toʻrtinchidan, hisoblash tartibini takomillashtirish boʻyicha takliflar berish. Muhim eslatma: maqola raqamlarning notoʻgʻriligini isbotlamaydi va biror izohni toʻgʻri deb tanlamaydi; u hisoblash birligi va ta’rifi aniqlanmaguncha bu sonlar turizm statistikasining boshqa koʻrsatkichlari bilan toʻgʻridan-toʻgʻri solishtirilmasligi kerakligini koʻrsatadi.

[1] Namangan Gullar festivali bilan Ginnes rekordlar kitobiga kirdi // Gazeta.uz, 24.05.2026: https://www.gazeta.uz/oz/2026/05/24/ginnes/

[2] 65-Xalqaro gullar festivali dunyo miqyosidagi madaniy va turistik voqelikka aylandi // Namangan viloyat Turizm boshqarmasi rasmiy sayti, 13.07.2026: http://namangan-tourism.uz/uz/news/65-xalqaro-gullar-festivali-dunyo-miqyosidagi-madaniy-va-turistik-voqelikka-aylandi

Nazariy asos: tadbir turizmi va tashrifchilarni hisoblash

Tadbir turizmi – rejalashtirilgan tadbirlarni tashrifchilarni jalb qilish, manzil qiyofasini shakllantirish va iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish vositasi sifatida o‘rganuvchi yo‘nalish bo‘lib, uning ta’rifi, shakllanishi va tadqiqot predmeti Getz tomonidan tizimlashtirilgan [3] . Tadbir turizmida tashrifchilarni hisoblash alohida murakkablikka ega, chunki tadbir ko‘pincha ochiq maydonda, kirish nazoratisiz, bir necha kun yoki hafta davomida o‘tadi va unda mahalliy aholi, bir kunlik mehmonlar va tunab qoladigan sayyohlar aralashib ketadi.

Xalqaro turizm statistikasi metodologiyasi bu toifalarni aniq ajratadi. Turizm sun’iy hisobining uslubiy asosiga ko‘ra, tashrifchi (visitor) – odatiy muhitidan tashqaridagi asosiy manzilga bir yildan kam muddatga va istalgan asosiy maqsadda (ish, dam olish yoki boshqa shaxsiy maqsad) sayohat qilgan sayohatchi; odatiy muhit – shaxs o‘zining muntazam kundalik faoliyatini olib boradigan geografik hudud; sayohati tunashni o‘z ichiga olgan tashrifchi turist (tunab qoluvchi tashrifchi), tunashni o‘z ichiga olmagani esa bir kunlik tashrifchi (ekskursant) deb ataladi[4]. Bu ta’riflardan ikkita xulosa kelib chiqadi. Birinchidan, o‘z shahri va tumanida o‘tgan tadbirga borgan mahalliy aholi odatiy muhit ichida harakat qilgani uchun tashrifchi hisoblanmaydi. Ikkinchidan, tunamagan kishi “turist”dan farqli o‘laroq bir kunlik tashrifchi bo‘lib, ularni bitta “turist” toifasida jamlash xalqaro ta’rifga mos kelmaydi.

Ommaviy tadbirlarning iqtisodiy ta’siri baholanganda tashrifchilar sonining oshirib ko‘rsatilishi muammosi adabiyotda yaxshi ma’lum. Crompton iqtisodiy ta’sir tadqiqotlarida qo‘llaniladigan o‘nta noto‘g‘ri usulni sanab o‘tgan; ular orasida mahalliy aholini hisobga qo‘shish, vaqtni almashtiruvchi va tasodifiy tashrifchilarni kiritish, tashrif sonlarini oshirib ko‘rsatish bor[5]. Bu ish tashrif sonlarining aksariyati rasmiy tashkilotchi yoki buyurtmachidan kelishini va ularning obyektivligini mustaqil taqqoslash orqali tekshirish zarurligini ko‘rsatadi. Maqolada bu mulohaza Namangan

[3]Getz D. Event Tourism: Definition, Evolution, and Research // Tourism Management. — 2008. — Vol. 29, No. 3. — P. 403–428.

[4]Tourism Satellite Account: Recommended Methodological Framework 2008 / United Nations, Eurostat, OECD, UNWTO. — New York: United Nations, 2010. — (Studies in Methods, Series F, No. 80/Rev. 1). — Para. 1.1, 2.6, 2.12. — URL: https://unstats.un.org/unsd/publication/seriesf/seriesf_80rev1e.pdf

[5]Crompton J.L. Economic Impact Studies: Instruments for Political Shenanigans? // Journal of Travel Research. — 2006. — Vol. 45, No. 1. — P. 67–82. DOI: https://doi.org/10.1177/0047287506288870

festivaliga nisbatan qo‘llaniladi, biroq Crompton keltirgan holatlar festivalda kuzatilgan deb da’vo qilinmaydi: biz faqat e’lon qilingan sonlarning boshqa rasmiy ko‘rsatkichlar bilan izchilligini tekshiramiz.

Ko‘rsatkich	**Qiymat**	**Manba va izoh**
2025: boshqa viloyatlardan kelgan mahalliy sayyohlar	264 524	Namangan Turizm boshqarmasi, 27.05.2025; hisobot sanasigacha
2025: Namangan shahri va tumanlaridan kelganlar	619 288	Xuddi shu manba
2025: xorijiy turistlar (26 davlat)	60 654	Xuddi shu manba
2026: xorijiy turistlar	> 1 100 000	Namangan Turizm boshqarmasi, 13.07.2026; dastlabki hisob-kitob, 50 kun
2026: mahalliy sayyohlar	> 7 500 000	Xuddi shu manba; guruhlarga ajratilmagan
Namangan rejasi, 2026: xorijiy / jami turistlar	31,0 ming / 2 298,0 ming	Vazirlar Mahkamasining 211-son qarori (2022); butun yil uchun maqsadli ko‘rsatkich
Namangan rejasi, 2022–2026: xorijiy turistlar	122,7 ming	Xuddi shu qaror; besh yil yig‘indisi
Mamlakat: xorijiy turistlar, yanvar–iyul 2026	7,749 mln	Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumoti (Spot.uz, 12.08.2026); 212 kun
Farg‘ona viloyati, 2025: xorijiy / mahalliy	> 500 ming / > 3 mln	Prezident yig‘ilishi, 28.04.2026; butun yil
Namangan joylashtirish vositalarida xizmat ko‘rsatilgan kishilar, 2025	106 550	Statistika boshqarmasi press-relizi (II–IV turlar yig‘indisi); barcha fuqarolar

1-jadval. Tahlilda ishlatilgan rasmiy ko‘rsatkichlar

Ma’lumotlar va metodologiya

Tahlil faqat ochiq rasmiy manbalarga tayanadi (1-jadval). Festival koʻrsatkichlari ikki yil boʻyicha olingan. 2025-yilgi 64-festival boʻyicha viloyat Turizm boshqarmasining 2025-yil 27-maydagi xabari mavjud boʻlib, unda tashrifchilar uchta guruhga boʻlingan: boshqa viloyatlardan kelgan mahalliy sayyohlar, Namangan shahri va tumanlaridan kelganlar va xorijiy turistlar[6]. Bu sonlar hisobot sanasigacha toʻplangan; ularga aniq qancha kun kirgani manbada koʻrsatilmagan, festival esa oʻsha yili iyul oxirigacha davom etgan. 2026-yilgi 65-festival boʻyicha esa Turizm boshqarmasi tashrifchilarni faqat ikki guruhga – xorijiy va mahalliy – boʻlib, jami miqdorni “dastlabki hisob-kitoblarga koʻra” va “oshdi” ifodasi bilan e’lon qilgan; demak, ular pastki chegara sifatida talqin qilinadi. Festivalning oʻzi 24-maydan boshlab 50 kun davom etgan.

Taqqoslash uchun toʻrtta manba ishlatildi. Birinchisi – Vazirlar Mahkamasining Namangan viloyatini 2022–2026-yillarda rivojlantirish boʻyicha 211-son qarori boʻlib, unda turistlar soni boʻyicha yillik maqsadli koʻrsatkichlar berilgan[7]. Ikkinchisi – Milliy statistika qoʻmitasining mamlakat boʻyicha xorijiy turistlar oqimi toʻgʻrisidagi ma’lumoti, uning 2026-yil yanvar–iyul oylari uchun qiymati ikkilamchi manba orqali olingan[8]. Uchinchisi – Fargʻona viloyati boʻyicha Prezident yigʻilishida e’lon qilingan 2025-yilgi turist soni[9]. Toʻrtinchisi – joylashtirish boʻyicha ma’lumot boʻlib, u Namangan viloyati statistika boshqarmasining turizm press-relizidan olingan; uning ichki nomuvofiqliklari (matn va jadval oʻrtasidagi farq, e’lon sanasi) bu yerda ishlatilgan umumiy yigʻindiga ta’sir qilmaydi, chunki yigʻindi faqat xizmat koʻrsatilgan kishilar sonlaridan hisoblangan[10]. Har bir taqqoslash nisbat sifatida hisoblandi; nisbatlar tasdiqlangan xato emas, balki izchillik koʻrsatkichidir.

[6]Gullar festivali: Namanganga sayyohlar oqimi keskin oshdi // Sputnik O'zbekiston, 27.05.2025 (Namangan viloyati turizm boshqarmasi ma'lumoti): https://oz.sputniknews.uz/20250527/gullar-festival-namangan-sayyohlar-49554035.html

[7]O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-apreldagi 211-son qarori "2022–2026-yillarda Namangan viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" // Lex.uz: https://lex.uz/docs/-5984308

[8] 2026-yil yanvar–iyulda O'zbekistonga 7,7 mln dan ortiq turist tashrif buyurdi // Spot.uz, 12.08.2026: https://www.spot.uz/oz/2026/08/12/influx-tourists; shuningdek yanvar–iyun uchun: Milliy statistika qo'mitasi, 13.07.2026: https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/69168-6-ojda-zbekistonga-6-5-mln-nafardan-orti-turist-tashrif-buyurdi-3

[9]O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farg'ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishi, 2026-yil 28-aprel // President.uz: https://president.uz/oz/lists/view/9153

[10] Namangan viloyati statistika boshqarmasi. Turizm va dam olishni rivojlantirish: press-reliz, 2025-yil ma'lumotlari (hujjatda e'lon qilish sanasi 10.08.2025 deb ko'rsatilgan) // namstat.uz. — Hujjat muallif arxivida saqlanadi.

Tahlil va natijalar

1. 2026-yilgi ko‘rsatkichlar tarkibi va kunlik intensivlik

2026-yilgi e’lon qilingan sonlar yig‘indisi kamida 8,6 million tashrifni (1,1 million xorijiy va 7,5 million mahalliy) tashkil etadi; xorijiy tashrifchilarning ulushi taxminan 12,8 foiz. Festival 50 kun davom etgani uchun kunlik o‘rtacha ko‘rsatkich kamida 172 ming tashrif, shundan 22 ming xorijiy. Bu sonlar pastki chegara, chunki manbada “oshdi” deyilgan; ular shuningdek yozma e’longa asoslangan dastlabki hisob-kitob. Eng muhim jihat shuki, “mahalliy sayyohlar” guruhi 2026-yilgi e’londa alohida bo‘linmagan: unda boshqa viloyatlardan kelganlar va Namangan aholisining o‘zi alohida ko‘rsatilmagan.

2. 2025-yilgi festival: tashrifchilar tarkibi

2025-yilgi ma’lumotda esa bu bo‘linish mavjud (2-jadval). Hisobot sanasigacha qayd etilgan jami 944 466 tashrifning 65,6 foizi Namangan shahri va tumanlari aholisiga, 28,0 foizi boshqa viloyatlardan kelganlarga, 6,4 foizi xorijiy turistlarga to‘g‘ri kelgan. Xalqaro ta’rifga ko‘ra, o‘z shahri va tumanida o‘tgan tadbirga borgan aholi odatiy muhit ichida harakat qilgani uchun tashrifchi (va turist) hisoblanmaydi. Demak, bu snapshot ma’lumotida tashriflarning uchdan ikki qismi turizm statistikasi ma’nosida tashrifchilar soniga kirmaydigan toifaga tegishli bo‘lgan. Bu 2026-yilgi guruhlanmagan 7,5 million “mahalliy sayyoh” ichida shunday toifa bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi, lekin buni 2026-yil uchun tasdiqlovchi ma’lumot yo‘q.

Guruh	**Kishi**	**Ulush, %**
Namangan shahri va tumanlaridan	619 288	65,6
Boshqa viloyatlardan (mahalliy sayyohlar)	264 524	28,0
Xorijiy turistlar (26 davlat)	60 654	6,4
Jami	944 466	100,0
Shundan xorijiy: Qirg‘iziston	38 185	63,0 (xorijiylar ichida)
Qozog‘iston	10 054	16,6

Tojikiston	9 948	16,4
Rossiya	1 845	3,0
Qolgan 22 davlat (ayirma)	622	1,0

2-jadval. 2025-yilgi festival: hisobot sanasigacha qayd etilgan tashrifchilar tarkibi

Xorijiy turistlarning davlatlar bo‘yicha tarkibi ham e’tiborga loyiq. 60 654 kishining 38 185 tasi (63,0 foiz) Qirg‘izistondan, 10 054 tasi (16,6 foiz) Qozog‘istondan, 9 948 tasi (16,4 foiz) Tojikistondan va 1 845 tasi (3,0 foiz) Rossiyadan; qolgan 22 davlatga atigi 622 kishi (1,0 foiz) to‘g‘ri keladi. Mamlakat bo‘yicha 2026-yil yanvar–iyun oylarida xuddi shu to‘rt davlatning ulushi 83,6 foiz bo‘lgan (Qirg‘iziston 28,6; Qozog‘iston 23,7; Tojikiston 22,4; Rossiya 8,9). Yillar va ko‘rsatkichlar turlicha bo‘lgani uchun bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqqoslash emas, lekin festival xorijiy tashrifchilari milliy oqimga nisbatan qo‘shni davlatlar tomon ancha kuchli siljigan ko‘rinadi.

3. Reja bilan taqqoslash

211-son qaror Namangan viloyati uchun 2026-yilda jami 2 298,0 ming turist, shundan 31,0 ming xorijiy va 2 267 ming ichki turist maqsadini belgilagan; besh yillik (2022–2026) yig‘indi mos ravishda 10 194,7 ming, 122,7 ming va 10 072 ming. Festivalning e’lon qilingan 8,6 million tashrifi 2026-yilgi butun yillik rejadan 3,7 baravar, xorijiy tashrifchilar soni (1,1 million) esa yillik rejadan 35,5 baravar va besh yillik yig‘indi rejadan 9,0 baravar ko‘p. Mahalliy tashriflar (7,5 million) yillik ichki turizm rejasidan 3,3 baravar, besh yillik ichki turizm rejasi yig‘indisining 74 foizi. Bu reja 2022-yilda tuzilgani, o‘sha davrdagi baholar konservativ bo‘lishi mumkinligi hisobga olinishi kerak; shunga qaramay, xorijiy tashrifchilar bo‘yicha 35 baravardan ortiq tafovut yagona yillik tadbir uchun reja noaniqligi bilan izohlanishi qiyin.

4. Milliy va viloyat darajalari bilan taqqoslash

Mamlakat bo‘yicha 2026-yil yanvar–iyul oylarida (212 kun) 7,749 million xorijiy turist qayd etilgan, bu kuniga o‘rtacha taxminan 36,6 ming demakdir. Festivalning 22 ming xorijiy tashrifchisi/kun shu o‘rtachaning 60 foiziga teng, jami 1,1 million esa butun mamlakat yetti oylik oqimining 14,2 foizi. Bu ikki kattalik bevosita solishtirilmaydi: milliy ko‘rsatkich “turistik maqsadda tashrif buyurgan chet el fuqarolari” bo‘lib,

mavsumiy o‘zgarishlar tekislangan; festival ko‘rsatkichining ta’rifi esa e’lon qilinmagan. Lekin bitta viloyatdagi bitta tadbir butun mamlakat kunlik oqimining deyarli beshdan uch qismini bergan bo‘lsa, bu o‘sha tadbir ko‘rsatkichining milliy ta’rifdan farq qiladigan birlikda hisoblangani haqidagi farazni kuchaytiradi.

Viloyat darajasida ham izchillik tekshirildi. Farg‘ona viloyati bo‘yicha 2025-yilda butun yil davomida xorijiy turistlar 500 mingdan, mahalliy sayyohlar 3 milliondan oshgan; festivalning 50 kunlik xorijiy tashrifi (1,1 million) bu ko‘rsatkichdan 2,2 baravar, mahalliy tashrifi (7,5 million) esa 2,5 baravar ko‘p. Yillar farq qiladi (2026 va 2025) va viloyatlar o‘lchami turlicha, lekin bitta tadbir qo‘shni viloyatning butun yillik ko‘rsatkichidan ikki baravardan ortiq bo‘lishi hisoblash birligi farqini taxmin qilishga asos beradi.

Test	**Taqqoslanuvchi qiymat**	**Nisbat**	**Cheklov**
A. Yillik reja	211-son: 2026-yil uchun 31,0 ming xorijiy / 2 298,0 ming jami	35,5 / 3,7 baravar	Reja 2022-yilda tuzilgan; yillik maqsad
A. Besh yillik reja	122,7 ming xorijiy (2022–2026)	9,0 baravar	Besh yil yig‘indisi bilan bir yillik tadbir
B. Milliy oqim	7,749 mln xorijiy, yanvar–iyul 2026	Ulush 14,2%; kunlik 60%	Ta’riflar farqli; mavsumiylik hisobga olinmagan
C. Farg‘o-na viloyati	>500 ming xorijiy / >3 mln mahalliy (2025, butun yil)	2,2 / 2,5 baravar	Yillar farqli (2026 va 2025)
D. Joylash-tirish	106 550 kishi (Namangan, 2025)	10,3 (xorijiy) / 81 (jami)	Yillar farqli; barcha fuqarolar; norasmiy yashash hisobga olinmagan
E. Tarkib (2025)	Aholi ulushi 65,6%; to‘rt qo‘shni davlat ulushi 99,0%	Milliy oqimda to‘rt davlat — 83,6%	Snapshot, kunlar soni noma’lum

3-jadval. Izchillik testlari natijalari

Joylashtirish statistikasi bilan taqqoslash yana bir jihatni ochadi. Namangan viloyatining joylashtirish vositalarida 2025-yil davomida barcha turlar boʻyicha jami 106 550 kishiga xizmat koʻrsatilgan (74 855 + 29 993 + 1 702), ya’ni festivalning xorijiy tashrifchilari soni (1,1 million) bu koʻrsatkichdan taxminan 10,3 baravar, jami tashriflar (8,6 million) 81 baravar koʻp. Yillar farqi va joylashtirish vositalariga kirmaydigan yashash joylari (qarindoshlar, norasmiy mehmon uylari) hisobga olinsa ham, bu nisbat tashrifchilarning katta qismi tunamasdan, ya’ni bir kunlik tashrifchi sifatida kelganini koʻrsatishi mumkin. Bu holda xalqaro ta’rifga koʻra ular "turist" emas, bir kunlik tashrifchi (ekskursant) hisoblanadi; e’londa esa "xorijiy turistlar" iborasi ishlatilgan.

Muhokama

Beshta test bir xil yoʻnalishni koʻrsatadi: festivalning e’lon qilingan tashrifchilar soni boshqa rasmiy koʻrsatkichlardan bir necha baravar yuqori. Bu holat uchta ehtimoliy izohga ega, ularning birortasi ma’lumotlar bilan tasdiqlanmagan va maqolada hech biri toʻgʻri deb tanlanmaydi. Birinchi izoh – hisoblash birligi farqi: e’lon qilingan son turistlar emas, balki tashriflar (har bir kirish yoki oʻtish) boʻlishi, shuning uchun bir kishi bir necha marta hisoblangan boʻlishi mumkin. Ikkinchi izoh – toifalar aralashuvi: “mahalliy sayyohlar” ichiga Namangan aholisi va “xorijiy turistlar” ichiga bir kunlik chegara orti tashrifchilari kiritilgan boʻlishi mumkin; 2025-yilgi tarkib (aholi ulushi 65,6 foiz, xorijiylarning 63 foizi qoʻshni Qirgʻizistondan) bu farazga mos keladi. Uchinchi izoh – reja konservativ boʻlgan va real oʻsish undan keskin oshib ketgan; biroq bu izoh ham 35 baravardan ortiq tafovutni toʻliq tushuntira olmaydi.

Bu natijalar strategik boshqaruv monitoringi uchun muhim. Tashrif koʻrsatkichi tadbirning oʻzi uchun muvaffaqiyat mezoni boʻlishi mumkin, lekin hududiy turizm siyosatida uni turistlar soni sifatida ishlatish ikki xavf tugʻdiradi. Birinchidan, bunday soni bilan boshqa koʻrsatkichlar (joylashtirishda xizmat koʻrsatilganlar, turistik xarajatlar) bir-biriga mos kelmaydi, bu esa tadbirning iqtisodiy samarasini baholashni qiyinlashtiradi. Ikkinchidan, noaniq sonlar keyingi yillardagi rejalarga ham oʻtishi mumkin: agar 8,6 million tashrif "turist" sifatida qabul qilinsa, hududiy dasturlar va investitsiya qarorlari notoʻgʻri bazaga tayanadi. Tadqiqotning cheklovlari aniq:

birinchidan, yillar mos emas va 2026-yilgi koʻrsatkich dastlabki hisob-kitob; ikkinchidan, 2025-yilgi festivalning yakuniy soni topilmadi, shu sababli ikki yil dinamikasi baholanmadi; uchinchidan, hisoblash usuli (chiptalar, hisoblagichlar, soʻrovlar) manbada ochilmagan; toʻrtinchidan, ikkilamchi manbalar (Spot.uz, Sputnik) rasmiy hujjat bilan toʻliq solishtirilmagan.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot quyidagi xulosalarga olib keldi. Birinchidan, 2026-yilgi festival uchun e'lon qilingan xorijiy tashrifchilar soni (1,1 milliondan ortiq) viloyatning yillik rejasidan 35,5 baravar, besh yillik rejasidan 9,0 baravar koʻp. Ikkinchidan, kunlik hisobda bu mamlakat boʻyicha oʻrtacha xorijiy turistlar oqimining 60 foiziga teng, butun Fargʻona viloyatining 2025-yilgi yillik xorijiy turist sonidan esa 2,2 baravar koʻp. Uchinchidan, 2025-yilgi ma'lumotda tashriflarning 65,6 foizi Namangan aholisiga, xorijiy tashrifchilarning 99 foizi toʻrt qoʻshni davlatga toʻgʻri kelgan, joylashtirish vositalarida xizmat koʻrsatilganlar soni esa xorijiy tashrifchilar sonidan taxminan 10 baravar kam. Toʻrtinchidan, bu natijalar e'lon qilingan sonlar xalqaro ta'rifdagi "turist"ni emas, tashrifni (aholi va bir kunlik tashrifchilarni ham oʻz ichiga olgan holda) oʻlchaydi, degan farazga mos keladi; bu faraz tekshirilishi kerak.

Quyidagi takliflar beriladi. Birinchidan, tashkilotchi organ har yili e'lon qilinadigan sonlar bilan birga ta'rifni ochiq koʻrsatishi kerak: birlik (tashrif yoki kishi), takroriy tashriflarning hisoblanishi, hisoblash usuli (kirish hisoblagichlari, chiptalar, namunaviy soʻrovlar). Ikkinchidan, tashrifchilar hech boʻlmaganda toʻrt guruhga boʻlinishi lozim: festival oʻtadigan hudud aholisi, boshqa viloyatlardan kelganlar, xorijiy bir kunlik tashrifchilar va xorijiy turistlar (tunab qolganlar). Uchinchidan, xorijiy turistlar sonini joylashtirish vositalaridagi roʻyxatga olish va chegara-oʻtish ma'lumotlari bilan solishtirish kerak. Toʻrtinchidan, dastlabki hisob-kitob yakuniy ma'lumot bilan almashtirilganda, oʻzgarish sababi e'lon qilinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Getz D. Event Tourism: Definition, Evolution, and Research // Tourism Management. — 2008. — Vol. 29, No. 3. — P. 403–428.

2. Crompton J.L. Economic Impact Studies: Instruments for Political Shenanigans? // Journal of Travel Research. — 2006. — Vol. 45, No. 1. — P. 67–82.

3. Tourism Satellite Account: Recommended Methodological Framework 2008 / United Nations, Eurostat, OECD, UNWTO. — New York: United Nations, 2010. — (Studies in Methods, Series F, No. 80/Rev. 1).

4. 65-Xalqaro gullar festivali dunyo miqyosidagi madaniy va turistik voqelikka aylandi // Namangan viloyat Turizm boshqarmasi, 13.07.2026. — URL: http://namangan-tourism.uz

5. Gullar festivali: Namanganga sayyohlar oqimi keskin oshdi // Sputnik O‘zbekiston, 27.05.2025. — URL: https://oz.sputniknews.uz/20250527/gullar-festival-namangan-sayyohlar-49554035.html

6. Namangan Gullar festivali bilan Ginnes rekordlar kitobiga kirdi // Gazeta.uz, 24.05.2026. — URL: https://www.gazeta.uz/oz/2026/05/24/ginnes/

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-apreldagi 211-son qarori. — URL: https://lex.uz/docs/-5984308

8. Milliy statistika qo‘mitasi: xorijiy turistlar oqimi, 2026-yil yanvar–iyun (13.07.2026) va yanvar–iyul (Spot.uz, 12.08.2026).

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha yig‘ilishi, 2026-yil 28-aprel. — URL: https://president.uz/oz/lists/view/9153

10. Namangan viloyati statistika boshqarmasi. Turizm va dam olishni rivojlantirish: press-reliz, 2025-yil ma’lumotlari.